

## TILDA, FIKRDA, ISHDA BIRLIK

*Sodiqova Nargiza Nasri qizi*

*TURON ZARMED universiteti*

*Tarix kafedrasi o'qituvchisi*

*Tel: 905112210 [nagisodiqova@gmail.com](mailto:nagisodiqova@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola turkiy olamning XIX asrdagi so'nggi mutafakkirlaridan biri bo'lmish Ismoil Gasprinskiyning mashaqqatli hayot yo'li, mustamlakachilik yillarida parchalab tashlangan millat va elatlarni birlashtirish maqsadi yo'g'rilgan ilg'or va hayotbaxsh g'oyalarini amalga oshirish yo'lidagi beqiyos sa'y-harakatlari natijasi o'laroq ochilgan jadid maktablari va ulardagi o'qitish usullarining bayoniga bag'ishlangan.

**Tayanch so'zlar:** jadid, usuli savtiya, "Zanjirli" madrasasi, "Xo'jayi sibyon", "Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo'ldosh", "Tarjimon".

Insoniyat tarixida shunday siymolar borki, ular ma'rifat va madaniyat sohasidagi ulkan xizmatlari bilan nafaqat o'zlari mansub bo'lgan millatning, balki qardosh va qondosh millatlarning ham yangi tarixiy taraqqiyot bosqichiga ko'tarilishiga munosib hissa qo'shganlar. Turkiy xalqlarning madaniy taraqqiyotiga shunday katta va bebaho hissa qo'shgan siymolardan biri Ismoilbek Gasprinskiydir.

Jadid maktablarining asoschisi, publisist, noshir, pedagog Ismoil Gasprinskiy yoshligidan onasi Fatimaxonimning qattiqqa'l tarbiyasida ulg'aydi. Ismoil Gasprinskiyga xos bo'lganadolatlilik, haqgo'ylik, muloyimlik, boshlagan ishini oxiriga yetkazish kabi fazilatlar ana shu tarbiyaning mevalaridir. Ismoilbek bolalik kezlaridanoq onasidan o'z xalqining tarixi aks etgan ertak va qo'shiqlarni tinglab ulg'aygan. Ismoilbek sevib tinglagen ertaklarining bosh qahramonlariga o'xshashga, ulardan ibrat olishga harakat qilgan. Savodli bo'lish uchun pul kerakligi, boylarning puli borligi, ammo ular ham o'qishni istamasligi haqidagi gaplari uning qulog'iga quyilgan edi. O'g'lining xalq ertaklarini diqqat-e'tibor bilan

tinglashini ko'rib, Ismoilning ilmga havasmand bo'lib o'sishini orzu qilgan edi. Orzular ro'yobga chiqdi... Dastlab eski mакtabda, so'ngra Oqmachit shahridagi guberniya gimnaziyasida ilm olgan Ismoil Gasprinskiy doimiy ravishda vaqtli matbuotda nashr etilayotgan maqolalarni o'qib, ulug' rus shovinizmi va milliatchilik ruhi bilan sug'orilgan materialarning mushtariylarga katta ta'sir ko'rsatayotganini o'z ko'zi bilan ko'radi. U garchand yoshligi tufayli boshqa millatlarni kamsituvchi bu maqolalarning maqsad-mohiyatini tushunmasa ham, bir narsaga iqrор bo'ldi: matbuot orqali kishilarga va, umuman, jamiyatga ta'sir o'tkazish mumkin. U kelgan xulosa ana shunday edi.

Yosh, shijoatli, bilimdon yigit Milyutin gimnaziyasini tugatgandan so'ng, Boqchasaroydagi "Zanjirli" madrasasida mudarris sifatida ishlay boshladi. "Zanjirli" madrasasi Boqchasaroydagi eng nufuzli madrasasi bo'lib, asosan diniy bilimlar o'qitilar, talabalarning dunyoviy fanlar haqidagi tasavvurlari esa juda g'arib edi. Aynan shu holat Ismoil Gasprinskiyda madrasa va maktablardagi ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish zarurligi to'g'risidagi fikrlarni uyg'otdi. Bunga erishish esa, eski mакtab va madrasadagi ta'lim tizimini yangilashni, uni yangi tarixiy davr talablariga moslashtirishni taqozo etardi. Ismoil Gasprinskiy muallimlik faoliyati davomida eski mакtab va madrasa ta'limiga ochiqdan-ochiq qarshi chiqib, Yevropa makablaridagi 45 daqiqали va qisqa tanaffusli dars tizimini joriy etish va o'quvchilarga, birinchi navbatda, dunyoviy fanlardan bilim berishni vazifa qilib qo'yadi. Ismoil Gasprinskiyning yozishicha, o't mishda musulmon madrasalarida tibbiyat, fizika, kimyo, geometriya, astronomiya va boshqa dunyoviy fanlar yuqori saviyada o'qitilgan. Hozirgi musulmon madrasalari dasturi arab kitobiy tili, ilohiyot va aqidaparastlikdan nariga o'tmaydi, o'qitish usuli esa tushunmay yodlashga asoslangan.

Ismoil Gasprinskiy xorijiy davlatlardan o'zlashtirib kelgan tajribalari asosida Bog'chasaroya jadid mакtabi ochib, 40 kunda 12 o'quvchining savodini chiqargan. Bolalar uchun "Xo'jayi sibyon" ("Bolalar muallimi") nomli alifbo darsligi yaratgan. Darslikning muqovasida "Bolalarning besavodligi uchun ota-onalari mas'uldir", degan shior yozib qo'yilgan edi. Gasprinskiy islom mutaassibligini yenggan holda

darslikda har bir mavzu bolaga yanada tushunarliroq bo'lishi uchun turli predmetlar, hayvonlar, qushlar va hasharotlar rasmlarini ko'rgazma sifatida ilova qiladi. Darslikdagi har bir dars oldingisini davom ettiradi. Bu usul o'quvchilarni dars mazmunini oson o'zlashtirishlari uchun juda qulay edi. Shuningdek, 1898-yili o'quv rejasi, darsxonaning holati, yillik imtihonlar o'tkazish tartibi, namunali dars jadvali, sinf xonasida o'qituvchi va o'quvchining joylashish o'rni haqida to'liq ma'lumot beruvchi "Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo'ldosh" uslubiy qo'llanmasini yozgan. Gasprinskiy muallimlarga qo'llanma hisoblangan ushbu kitobda yangi usul qoidalarini mukammal ravishda bayon qiladi va ularni birma-bir sanab ko'rsatadi. Yangi va eski usul taqqoslandi, yangi usul afzalliklari ko'rsatib berildi. Olib borilgan targ'ibotu tashviqotlar natijasida, musulmon savdogarları yangi usul maktablari ochilishga sarmoya krita boshladilar. Eskilik tarafdarlari bo'lgan musulmon mutaassiblari qarshiligiga qaramay usuli jaded maktablari Bog'chasaroydan Qashqargacha, Misrdan Hindistonga qadar keng hududda tarqaldi. Gasprinskiy 1892 yili "Tarjimon"da bergen xabariga ko'ra, yangi usulni qabul qilgan maktablar soni 30 taga yetgan. Bundan bir yil o'tib, 1893 yilgi xabarga ko'ra esa bunday maktablar soni 60 dan ortgan edi. 1906 yilga kelib esa yangi usul maktablari soni 5000 dan ortib ketgan.

Turkistonda birinchi usuli jadid maktabi ochilishi bevosita Ismoil Gasprinskiy bilan bog'liq. 1890 yillarga kelib, Gasprinskiy o'z g'oyalarini yoyish uchun nazarini Turkistonga qaratdi. Chunki, Rossiya musulmonlarining deyarli yarmi Turkiston o'lkasida edi. Shuning uchun ham Ismoil Gasprinskiy Turkistonga kelib, Buxoro, Samarqand va Toshkentdagi maslakdoshlari bilan uchrashdi hamda Turkiston va Bog'chasaroy o'rtasida do'stlik aloqalarini o'rnatdi. Uning ma'rifatparvarlik g'oyalaridan ruhlangan vatandoshlarimiz ko'p o'tmay, yangi usuldagagi maktablarni ocha boshladilar.

Mustamlakachilik sharoitida yashagan Sharq xalqlarining ko'zini ochish oson kechmadi. Bir tomonidan, mustamlakachilar, ikkinchi tomonidan, eskilik tarafdarlari Turkistonga yangi fikr daryosining oqib kelishiga qattiq qarshilik ko'rsatdilar. Shunday xavf-xatarlarga qaramay, shiori "Tilda, fikrda, ishda birlik"

## ***Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari***

bo'lgan Ismoil Gasprinskiy qat'iy shijoat bilan o'z maqsadi va am'rifatparvarlik g'oyalari yo'lida samarali faoliyat olib borib, sobiq chor Rossiyasi tobelligida majburan yashagan turkiy xalqlarning ma'naviy yo'lboshchisiga aylandi. Tarix yelkasiga o'g'ir mashaqqatlar yuklagan Ismoil Gasprinskiy turkiy xalqlar madaniyatini ko'kka ko'targan turkiy dunyoning yo'lchi yulduzi bo'lib qoldi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Абдирашидов З. Исмоил Гаспринский ва Туркистонда жадидчилик. Тошкент, 2008
2. Исмоил Гаспринский ва Туркистон. Тошкент: Шарқ, 2005
3. Жамолова Д. Туркистон ва Шарқ мамлакатлари тараққийпарварларининг ўзаро алоқалари. Тошкент: Фан, 2023